

## MADANIY DIPLOMATIYA VA UNING MOHIYATI

**Rasulov Azizjon**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti "Xalqaro munosabatlar" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada xalqaro munosabatlarning ajralmas qismi, yumshoq kuchning o'zagi bo'lmish madaniy diplomatiyaning ahamiyati, mohiyati hamda uning xalqlar hayotiga ta'sir etish jihatlari yuzasidan bajarilayotgan ishlar mazmuni tahlil qilinadi va misollar yordamida asoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi, siyosiy madaniyat, Lingua franca, buyuk o'yin, til muloqoti, gastrodiplomatiya, yumshoq kuch, Bolqon-Turkiya madaniy muhiti, nomad games, Britaniya kengashi (British Council)*

### **Kirish**

**Madaniy diplomatiya va uni amalga oshirish vositalari: aloqa vositasi hamda gastrodiplomatiya.** Dastavval madaniy diplomatiya tushunchasiga qisqacha izoh berib o'tsak. Madaniy diplomatiya tushunchasi ikki so'z: "Madaniyat" va "Diplomatiya", birikmalaridan yuzaga kelgan. Ikki so'z ham muloqot shakllarini anglatadi, biroq vazifalari farqlidir. Aniqroq yondashsak, diplomatiya an'anaviy tarzda yopiq eshiklar ortidagi muhokama va muzokaralardan iborat bo'lsa, madaniyat esa mohiyatan ochiq darvozalar va qizg'in muloqotlar maydonidir. Madaniy diplomatiya – bu ikki tomonlama munosabatlarni rag'batlantirish maqsadida madaniyatga oid g'oyalar, ma'lumotlar, qadriyatlar, tizimlar, an'analar, e'tiqodlar kabi bir qator omillar almashinuvida amalga oshiriladi.

Qudratli mamlakatlarga tegishli yumshoq kuchning muhim omillardan biri - til beixtiyor muloqot vositasiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, muayyan mamlakatga tegishli tilning nufuzi madaniy diplomatiyaga xos muhim strategiya omillaridan hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ommalashib borayotgan madaniy diplomatiya ko'lami, XXI asrning dolzarb muammolariga yechim sifatida, keng targ'ib etilishi kuzatilmoqda.

Madaniy diplomatiya tushunchasi nisbatan yangi bo'lishiga qaramay, aslida xalqaro munosabatlar sohasida chuqur ildizga egadir. Tarixan qudratli davlatlar odatda muayyan mamlakat va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish maqsadida o'zlarini madaniy diplomatiyaning vasiylari sifatida namoyon qilganlar. Ayniqsa, qudratli davlatlar tomonidan ma'lum bir xalqni o'ziga jalb etish, yo'naltirish, yoki ta'sir o'tkazish jarayonlarida til omillari muhim kuch sifatida aloqa manbayiga aylantirilgan.

Zamonlar osha nazar tashlashak, har bir darvda ma'lum bir til muayyan bir mintaqaga yoki o'lkada 'Lingua Franca' ya'ni qudratli til maqomiga ega bo'lgan. Aniqroq aytganda, bu ko'prik tili, asosiy aloqa yoki hukumat tili vazifasini o'tagan. G'arbiy Yevropani olaylik, tarixda nasroniylikning asosiy markazi bo'lgan Rim imperiyasi davrida lotin tili eng qudratli tillardan biri hisoblangan. Garchi lotin tili muloqotda o'ta faol qo'llanilmagan bo'lsa-da, ammo ko'plab qimmatli adabiyotlar lotin tilida tuzilganligi bois, ilm-fan rivojiga

buyuk hissa qo'shgan. Keyinchalik lotin tili fransuz, ispan, portugal, italyan va rumin tillarini o'z ichiga olgan 'roman tillari' oilasini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 900 millionga yaqin aholi roman tillarida so'zlashadi va 140 dan ortiq davlatda lotin alifbosidan foydalaniladi.

Markaziy Osiyo nafaqat buyuk allomalari va iqtidorli kishilari bilan mashhur, shuningdek zaminimiz millatlarining bir qancha tillarga oid tajribasi ham mavjuddir. Buyuk o'yin, 'Great Game' atamasi bilan tanilgan zamonlarni esga olsak, ikki qudratli davlat buyuk o'yinning asosiy o'yinchilari: Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyasi Osiyo mintaqasida o'zining g'oya va madaniyatlarini singdirishga muvaffaq bo'lishgan davlatlardir. Bu ikki buyuk kuchlarning asosiy targ'iboti til, adabiyot, nashrlar va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirildi. Keyinchalik, yumshoq kuch omillari Janubiy Osiyo uchun Britanyadan ingliz tili bilan birgalikda ta'lim tizimi va Markaziy Osiyo uchun esa Sovet ittifoqidan - rus tili va madaniyati meros bo'lib qoldi. Aytish joizki, ingliz tili tufayli Hindistonliklar butun dunyoda o'zlarining yuksak ishonchlaridan foydalanmoqdalar va xorijda muvaffaqiyatli diasporalardan biriga aylandilar. Dunyodagi taniqli davlat arboblari obro'li lavozimlarda boshqarib kelayotgan Hindistonliklar, millat nufuzini yuksaltirmoqda. Eng qizig'i, sobiq mustamlakachi davlat Britaniya hukumatini endilikda, nasabi hind Rishi Sunak boshqarayotgani esa alohida ahamiyatga molikdir.

Ayni paytda, Markaziy Osiyo rus tilini sobiq ittifoq respublikalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun ko'prik sifatida qadrlaydi hamda ushbu tildan foydalanishni davom ettirmoqda. Kuchli tillarning yuksalishi va qulashi odatda kuchlar muvozanatining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi ham ingliz tili nufuzini yuksaltirishga turkti bo'ldi. Sababi, ikki tilda - ingliz va fransuz tillarida tuzilgan "Versal shartnomasi" ingliz tilining diplomatik maqomini oshirdi. Keyinchalik ingliz tilining hukmron bo'lishi uni xalqaro diplomatiyaning "Lingua Franca" sig'a aylantirdi. Shubhasiz, manfaatdor kuchlar ingliz tili va madaniyatining boshqa jamiyatlarga ta'sirini kuchaytirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirdilar. Britaniyaliklar tomonidan olib borilayotgan madaniy diplomatiyaning yuksak namunasi natijalaridan biri bu ingliz tilini xorijda ommalashtirish bo'yicha madaniy vositachi - Britaniya Kengashi (British Council) ning tashkil etilishi bo'ldi. Fransiya ittifoqi (Fransiya), Britaniya kengashi (Buyuk Britaniya), Gyote instituti (Germaniya), Servantes (Ispaniya) Konfutsiy (Xitoy) va Hindiston madaniy aloqalar kengashi kabi madaniy institutlar, o'ziga taaluqli milliy til va madaniyatni muntazam targ'ib etib kelmoqdalar. Yumshoq kuchga oid til targ'iboti madaniy diplomatiyada katta salohiyat va imkoniyatlar eshigini ochadi va davlatning milliy manfaatlarini ta'minlash yo'lida muhim vositasi hisoblanadi.

**Gastrodiplomatiya** tushunchasiga Rokover tomonidan asos solingan (2012). Rokoverning kontseptsiyasini ifodalash uchun "gastrodiplomatiya" atamasi hukumatlar va davlatlar tomonidan, ko'pincha nodavlat aktyorlar bilan hamkorlikda, qiymatni oshirish uchun kelishilgan va barqaror jamoatchilik bilan aloqalar va investitsiya kompaniyalari va oziq-ovqat orqali o'z milliy brendining obro'si anglatadi. Oziq-ovqat hukumatdan jamoatchilik diplomatiyasida diplomatik maqsadlarga erishish uchun ishlatiladi va bu

milliy taomlar namoyishlarida ham ko'zga tashlanadi. Gastrodiplomatiya barcha odamlarning hayoti va madaniyatining umumiy o'lchovi sifatida oziq-ovqat, milliy taomlarga asoslanadi. Buni xalq va madaniy diplomatiyaning "mehribon" turi deb hisoblash mumkin, chunki u to'g'ridan-to'g'ri targ'ib qilish orqali emas, balki hissiy aloqalarni o'rnatish orqali ko'proq egri ta'sir ko'rsatadi. So'nggi o'n yil ichida ko'plab davlatlar chet eldagi madaniy ta'sirini oshirish uchun gastrodiplomatiya kompaniyalarini amalga oshirdilar. Gastrodiplomatiya, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro miqyosda targ'ib qilish va birinchi navbatda iqtisodiy sabablarga ko'ra muloqot qilish bilan bog'liq emas (garchi u reklama xususiyatlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lsa-da, bunday reklama madaniy ta'sirning tarqalishini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladi). Shuning uchun gastrodiplomatiya nafaqat diplomatiya, balki butun diplomatik spektr (tamoyillar) ni qamrab oladi.

**Bolqon-Turkiya madaniy diplomatiyasi.** Avvalo Bolqon davlatlarida Turkiyaning "yumshoq kuch siyosati" o'zaro tarixiy madaniy aloqalarda asoslangan. Shu tufayli mintaqa davlatlari Turkiyani o'ziga yaqin deb hisoblashadi. Shuni aytib o'tish joizki, Bolqon so'zi Turk tilidan kelib chiqqan. Bolqon davlatlari 500 yil davomida Usmoniylar imperiyasi ta'sirida bo'lgan. Ular qoldirib ketgan meros Usmoniylarning fundamental asoslaridir. Usmoniylar – Turk – Islom madaniyati Bolqon davlatlarida o'zining o'chmas izini qoldirdi. Mintaqada qolgan musulmon Usmoniylar, kam sonli turklar, Bolqon xalqi Turkiyada yashab kelgan xalqdan kelib chiqqan, shuning uchun bevosita Turkiya bilan umumiy tarixiy va madaniy qadriyatlari mavjud. Aynan shular Turkiyaning doimiy qiziqishini tortib kelgan muhim jihat hisoblanadi. Turkiyaning strategiyasi bu mintaqada "soft power (yumshoq kuch)" va madaniy diplomatiyaga asoslangan.

Turkiya madaniy diplomatiya siyosati doirasida Bolqon davlatlarida madaniy merosni asrab qolishga, uni asrab avaylashga qaratilgan bir nechta dasturlarni ilgari surdi va dasturlarni Turkiyaning o'zi mablag' bilan taminladi hamda Bolqon madaniyati saqlanib qolishida o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. Turkiyaning "yumshoq kuch" siyosati doirasida Bolqon davlatlarida qaratilgan "madaniy diplomatiya" dasturi natijasida Turkiya o'zining dunyo siyosiy maydonida mustahkam pozitsiyasiga ega bo'ldi deb aytishimiz mumkin.

**Siyosiy madaniyat:** Siyosiy madaniyat tushunchasining mohiyati har bir jamiyat o'z a'zolari uchun muayyan bir me'yor va qadriyatlarni shakllantirishidir. Mazkur omillar sabab xalqlar, millatlar bir-biridan farqlanadi. Siyosiy madaniyat siyosiy tizimning eng muhim tarkibiy qismi bo'lganligi bois, xalq va millatlarning siyosiy tizim haqidagi o'ziga xos e'tiqodlari, ramzlari va qadriyatlari millatning siyosiy madaniyatini namoyon qiladi. Har bir davlatning siyosiy madaniyati uning tarixi, iqtisodiyoti, dini va folklori orqali aniqlanadi. Siyosiy madaniyatning asosiy qadriyatlari asrlar davomida shakllanadi. *Siyosiy madaniyat* – subyektning davlat bilan o'zaro ta'sirini va uning siyosiy faoliyatga kirib borishini amalga oshirishda vosita bo'lib xizmat qiluvchi siyosiy bilimlar, qadriyat mezonlari, xulq-atvor modellarining yig'indisidan iborat. Siyosiy madaniyat jamiyat va



shaxsning sivilizatsiyalashganligining u yoki bu darajasini, ularning siyosiy xulq-atvor hamda xatti-harakatlarining qandaydir qoidalarini qabul qilish qobiliyatini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy va huquqiy jihatdan layoqatlilik darajasini ifoda etib, jamiyatda siyosiy va davlat institutlarining shakllanishi, faoliyat ko'rsatishiga, shuningdek, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tashkil qilinish jarayoniga katta va hal qiluvchi, ta'sir o'tkazuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki ular o'rtasidagi dialektik birlik siyosiy madaniyat amaliyotining mushtarak qonuniyati mazmunini tashkil etadi.

Siyosiy madaniyat darajalari hamma davlatlarda ham bir xil emas, ular o'rtasidagi farqlanishlar siyosiy madaniyatning modeliga qarab farqlanadi. Siyosiy madaniyat modeli – bu siyosiy rejimga nisbatan davlat va jamiyatda shakllangan va amal qiladigan siyosiy madaniyat andozasidir. Ilmiy adabiyotlarda siyosiy madaniyatning asosan ikki modeli ko'rsatiladi: totalitar-avtoritar va plyuralistik (liberal demokratik), shuningdek uchinchi model sifatida "sharqona siyosiy madaniyat" modeli ham keltiriladi. Siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli fuqaroning jamoaviy sifatlarini uning individual sifatlaridan ustunligi bilan ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, siyosiy madaniyat xalq diplomatiyasi hamda madaniy diplomatiyaning ajralmas qismidir. Siyosiy madaniyat natijasida madaniy diplomatiyaning asoslari paydo bo'ladi.

#### **O'zbekistonning madaniy muhiti va madaniy diplomatiya haqida chet ellik mehmonlar bilan suhbat (intervyu shakli):**

1. *Malayziya madaniy muhiti hamda o'zbek-malay madaniy diplomatiyalari haqida qanday ma'lumot bera olasiz?*

- Malayziya madaniyatining rang-barang jihatlari ko'p. Nafaqat Malayziyada, balki Indoneziya va Singapurda ham hind madaniyatining ba'zi jihatlari ko'rishimiz mumkin. Xususan, bir qancha bayramlar va festivallar juda o'xshash. Endi o'zbek-malay madaniy diplomatiyasi haqida gapiradigan bo'lsam, asosan, gastrodiplomatiya alohida ahamiyatga ega, negaki o'zbek milliy taomlari bizning mamlakatda ham sevib iste'mol qilinadi. Aynan gastrodiplomatiya orqali O'zbekistonga nisbatan mening qiziqishim oshdi va o'zbek madaniyati, tarixi va xalqini o'z ko'zim bilan ko'rish uchun ushbu Xalqaro turizm haftaligiga Malayziya xalqi delegati sifatida tashrif buyurdim.

*Nazirul Hakim, malayziyalik bloger, jurnalist*

2. *Madaniy diplomatiya va gastrodiplomatiya haqida hamda o'zbek-qozoq an'analari haqida nima deya olasiz?*

- O'zbek va qozoqlar tili, dini va qadriyatlari bo'yicha o'xshash. Men asli Ostona shahridanman va hozirda ikki yildan beri Toshkentda yashab, ishlab kelaman. Bu davr mobaynida o'zbeklarning bir qancha an'ana va odatlarini o'rgandim. Chunki bu yerda do'stlarim va qarindoshlarim yashaydi. Ular bilan to'y va yig'inlarda uchrashib turamiz. O'zbekistonda qozoq tilini o'rganish va bu tilda gapirish uchun hech qanday cheklov yo'q, aksincha imkoniyatlar ko'p. Yuqorida aytib o'tganimdek, qarindoshlarim, qudalarimning bolalari O'zbekistonda qozoq maktablarida o'qishadi. Gastrodiplomatiya haqida so'z borar ekan, Qozog'istonda o'zbek palovi va bo'g'irsoqlari hamda O'zbekistonda qozoq

beshbarmoq va qimizlari sevib iste'mol qilinadi. Madaniyat va qadriyatlarimiz yaqinligi sababli ikki xalq orasida madaniy diplomatiya rivojlanib bormoqda. Buni davlatlarimiz Prezidentlarining uchrashuv va qabul qilinayotgan qarorlarimizda ham ko'rishimiz mumkin. Balki, shu sababdan qozoqlarning ko'pi O'zbekistonga sayohatga oshiqishadi va yurtimizda o'zbek xalqi haqida iliq fikrlar va o'zbek madaniyatini o'rganish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

*Q.Bazargul, Qozog'iston miliy teleradiokompaniyasining O'zbekistondagi jurnalisti*

3. *O'zbekistonning turistik salohiyati va madaniyati haqida qanday fikrdasiz?*

- Men bu Xalqaro turizm haftaligida ko'rdimki, O'zbekistonda ayollar tengligi va ijtimoiy faolligi yuqori darajada. Shuningdek, ular o'zlari yolg'iz chet ellarga sayohat qilyaptilar hamda bu ko'rsatkich yildan yilga oshmoqda. Haftalik doirasida biz turli manzillarda bo'lyapmiz, o'zbeklarning milliy va madaniy sohadagi yutuqlari bilan tanishyapmiz. Bu kabi yutuqlar hamma davlatda ham uchrayvermaydi. Biz sayohat qilish uchun mamlakat tanlayotganimizda uning tabiiy resurslari va tabiiy boyliklari, qanday joyda joylashganiga emas, balki millati, xalqi va biz ulardan nimalarni o'rgana olishimiz mumkinligiga e'tibor qaratamiz va bu borada O'zbekistonni alohida va hurmat bilan tilga olaman.

Dr.Nisha Abu Bakar, Jahon ishbilarmon ayollar harakati direktori, Xalqaro ayollar turizmi Singapurdagi tashkilot rahbari

4. *Buxoroda o'zbek tilidan boshqa yana alohida til mavjudmi?*

- Yo'q, o'zbek tili davlat tili. Faqat ba'zi hududlarda tojik tili lingua franca hisoblanadi. Buxoroning o'ziga xos shevasi, tojik tili lingua franca bo'lishiga qaramay o'zbek tili davlat tili hisoblanadi va doim hurmat qilinadi.

*I.Mahmudov, Toshkent shahar yoshlar ittifoqi sardori, Buxoroda bo'lib o'tgan Xalqaro Turizm haftaligi ishtirokchisi*

5. *O'zbek va koreys xalqlari o'rtasida qanday madaniy o'xshashliklar mavjud?*

- Ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarning o'xshash jihatlari kam, lekin yo'q emas. Buni nomad games (ko'chmanchilar o'yinlari, an'anaviy sport va madaniy merosni targ'ib qiluvchi noyob sport tadbirlari) kabi tadbirlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'zbeklarning ko'pkari o'yini bizning chovgon o'yiniga, kamon otish mashg'ulotlari va kurashlari ham o'xshash. Ikki xalq ham gurunchni sevib iste'mol qiladi. Koreya gastrodiplomatiyada "kimchi diplomatiyasi" dan foydalanganidek, o'zbeklarning palovi ham keng jahonga tarqalmoqda. Seulda ham ko'plab halol o'zbek oshxonalarini ko'rishingiz mumkin. O'zbekiston madaniyati bilan tanishganimdan mamnunmam va ikki millat o'rtasida madaniy diplomatiya rivojlanib borayotganidan xursandman.

*Daud Kim, koreyalik bloger*

**Xulosa.** Madaniy diplomatiya diplomatiyaning ajralmas qismidir. Madaniy diplomatiya natijasida millatlar va xalqlar madaniyati rivojlanishi uchun keng zamin yaratiladi. Madaniyat haqida so'z borganda, O'zbekiston ancha yuqori o'rinlarda turadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" gi PQ-668-sonli qarorlari (20.01.2021), "Madaniyat va



san'at sohasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarorlari (02.02.2022) va yana boshqa ko'plab qaror va farmonlar yurtimizda madaniy diplomatiyaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, yurtboshimizning "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" degan gaplari ham bu sohaga qaratilgan e'tibordan nishonadir.

Bu kabi harakatlar natijasida, yurtimizda va chet elda ham o'zbek madaniyati va madaniy diplomatiyasi yutuqlari tarqalmoqda. Bu esa har birimiz uchun yuksak faxr va iftixordir. Zero, bu bilan o'zbek tili (muloqot va aloqa vositasi sifatida), madaniyati va milliy an'analari, milliy taomlari (gastrodiplomatiya sifatida) ni o'rganish va o'rgatish, namuna sifatida ko'rsatish uchun yuksak imkoniyatdir.



Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi doirasida amalga oshirilgan tadbir va madaniy diplomatik uchrashuvdan lavhalar. Buxoro, 27.11.2023

### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/madaniy-diplomatyada-tilning-qudratli-imkoniyatlari>
2. <http://www.gastrodiplomacy.net/gd-explanation>
3. <http://scientists.uz/uploads/conferences/0013/M-113.pdf>
4. <https://student.iiu.uz/education/resources/45879?subject=1079>
5. <http://lex.uz/docs/-5230682> Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida
6. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>
7. <https://iiu.uz/oz/news/1832>